

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11323055>

XALQ HUNARMANDCHILIGIDA GILAMDO‘ZLIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Mallayev Dilmurot Tursunmurodvich

TerDU Jahon tarixi kafedrası o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Gilamchilikning an’anaviy xususiyatlari, Gilamchilikning asosiy xomashyosi haqida ma’lumot berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Merinos juni, Tuya juni, Paxta tolasi, Kanop tolasi, Ipak tolasi*

***Abstract:** Traditional features of carpet making, information about the main raw materials of carpet making.*

***Key words:** Merino wool, Camel wool, Cotton fiber, Hemp fiber, Silk fiber*

San’at inson mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilib, har bir san’at asarida shaxsning o‘ziga xos iste’dodi namoyon bo‘ladi. U keng ma’noda badiiy qadriyatlar, ularni yaratish va iste’mol jarayonlarini ham qamrab oladi va hozirgi davrga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda rivojlanib kelgan. Gilamdo‘zlik va kigizdo‘zlik xalq hunarmandchiligining qadim turlaridan hisoblanib, yarim ko‘chmanchi (chorvachilik) tarzda hayot kechiruvchi qabilalarning asosiy mashg‘uloti bo‘lgan. Gilamni qo‘lda to‘qish murakkab jarayon sanaladi, tajribali usta gilam to‘qishni yoshlikdan o‘rgana borib, 16-17 yilda haqiqiy usta bo‘lib yetishgan. 7-9 yoshdagi qizlar dastlab charxda ip yigirishni o‘rganib, 11-14 yoshida gilam to‘qishni boshlashgan va bu yoshda hali bo‘yoq ishlarida qatnashmagan. Bu hunar turi bilan asosan ayollar shug‘ullangan.

O‘zbekistonda ham gilamdo‘zlik va kigizdo‘zlik yarim ko‘chmanchi (chorvadorlik) tarzda hayot kechiruvchi yung mahsulot (asosan qo‘y va tuya)lariga juda boy mahalliy aholining asosiy mashg‘uloti bo‘lgan. XI-XII asrlarda Markaziy Osiyoda shu jumladan, O‘zbekiston hududida gilam to‘qish san’ati juda rivojlangan. XIV asrning 2-yarmida Markaziy Osiyoda gilam to‘qish san’ati yanada rivojlanib, turli xorijiy mamlakatlardan kelgan ustalar gilam to‘qish ustaxonalarida ishlaganlar. Bu davrda X-XIII asrlarda shakllangan naqsh uslubi yanada taraqqiy etgan. Mo‘g‘ullardan oldingi davrlarda turkiy qabilasi bo‘lmish o‘g‘uzlarning gilamchilik buyumlari dong chiqargan. Temuriylar davrida eroniy va turkiy an’anaga uyg‘unlashtirilgan

gilamdo‘zlik hamda XVI asrdan boshlab Movarounnahrda dashti qipchoq o‘zbek qabilalarining gilamdo‘zlik buyumlari keng tarqalgan. Jun va paxta xomashyosidan to‘qilgan shohona gilamlar XVIII XIX asrlarda oddiy xalq orasida ham keng tarqalgan. XVIII asrdagi murakkab tarixiy sharoitlarda amaliy san‘at juda sekin rivojlandi, biroq u o‘zining asosiy hayotiylik mazmunini va ipak matolar ishlab chiqarish, gilamchilik, zargarlik, kulolchilik, charm, tosh, yog‘och hamda metallga badiiy ishlov berish kabi barcha turlarini saqlab qoldi.

Qadimgi an‘anaviy xususiyatlar ham saqlandi. Andijon, Samarqand, Buxoro, Marg‘ilon, Xiva, Toshkent to‘qimachilik markazlarida gulsiz va murakkab gulli ip, jun matolar, gilamlar tayyorlangan. XIX asrning oxirigacha gilam to‘qish san‘atida o‘simliklardan tayyorlangan bo‘yoqlar ishlatilgan, keyin esa anilin bo‘yoqlaridan foydalanila boshlandi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida xalq amaliy san‘ati taraqqiyoti juda murakkab kechdi. Unda yangi uslubiy belgilar yangi obrazlar yechimlari kuzatildi. Bu davrda tukli gilam buyumlar va an‘anaviy handasiy gulli paloslar ishlab chiqarildi. Ilk bor portretli gilamni usta G‘.Abdullayev yaratdi. XX asrning 60-70-yillari oxirida gilamchilik va palos to‘qish, kigizchilik rivojlandi. O‘zbekistonning turli tumanlarida gilamchilik korxonalarini tuzildi, avvallari xonadonlarda ishlab chiqarish bilan chegaralangan gilamchilikning mahalliy an‘analari va to‘quvchilarning mahorati keng omma mulkiga aylandi. Samarqand viloyatida uzun tukli ajoyib julxirslar tayyorlandi. Ularning guli va ranglari qizil, jigar rangdan quyuc va to‘yingan to‘q qizil ranglargacha cheksiz turlandi, turli xil handasiy gulli (arabi, gajari, terma va boshqa) paloslar yorqin kontrast ranglarni uyg‘unlashtirib to‘qildi. Gilam ustida ishlagan rassomlar XIX asrning birinchi yarmida yuksalgan Xorazm amaliy bezagi va mahobatli san‘ati an‘analariga tayandilar. Xorazmda gilam to‘qish bilan turkman va qoraqalpoqlar shug‘ullangan.

Gilamchilikning asosiy xomashyosi tabiiy jun, ipak va paxta tolasi hisoblanadi. Jun tolalarining eng afzali tolasi ipakka o‘xshash, yupqa, uzun va elastik bo‘lgan angor, merinos, tuya junlari va moxer junlaridir. Merinos juni – merinos qo‘yining ingichka mayin juni. Avstraliya merinos qo‘ylarining juni bunday junlarning eng yaxshisi hisoblanadi. Merinos juni ingichka, mayin, tivit tolali, uzunligi 6-8 sm bo‘ladi.

Tuya junining yumshoq yoki dag‘al bo‘lishi uning yoshiga bog‘liq. Junning och jigarrangdan to‘q jigarrangacha bo‘lgan tabiiy chiroyli rangi bu junni bo‘yamasdan ishlatish imkonini beradi.

Paxta tolasi to‘qimachilikning muhim xomashyosi hisoblanadi. Gilamchilikda paxta tolasi tukli gilamlarda asos ipi (erish) vazifasini bajaradi. Markaziy Osiyoda qattiq tuksiz gilamlarni to‘qishda paxta tolasidan keng foydalanilgan. Qimmatbaho gilamlar to‘qishda paxta tolasidan juda kam foydalanilgan.

Kanop tolasi – kanop o‘simligi poyasidan olinadigan uzun tola. Ingichka, mayin va pishiq, nam tortish xususiyati yuqori. Kanop o‘simligi O‘zbekistonda ham ekilgani uchun mahalliy xomashyo hisoblanadi. Undan asosan, qoplik gazlama, o‘rov materiallari, brezent, kanop ip (arqon), gilam to‘qishda ishlatiladigan arqoq ipi olinadi.

Ipak tolasi – qimmatbaho to‘qimachilik xomashyosi. Ipakdan dekorativ xususiyatlari, yaltiroqligi va oppoq tusligi uchun ham foydalaniladi. Hech bir jun turi ipak tolasi kabi yaltiroqlik xususiyatiga ega emas (hatto angor echkilari, ingliz uzun junli qo‘ylari, yosh qorako‘l qo‘zi juni ham). Ipak tolalar (shoyi) serosin bilan pillani ushlab turish uchun ipak qurti ajratuvchi protein yelim qoplanganligi uchun shoyi ipakdan ko‘ra otning yoliga o‘xshaydi. Shoyini yelimlash va yuvish uning rangini ochadi hamda yumshoqroq, yaltiroq holga keltiradi.

Shoyini yelimlash uchun cho‘lda uchrovchi qirq bo‘g‘im o‘simligini yondirib, ishqor deb nomlanuvchi kuli olinadi. Ushbu kulni issiq suvga aralashtiriladi va ishqor suvda chayiladi. Shundan so‘ng qirg‘ichdan o‘tkazilgan xo‘jalik sovuni aralashtirilgan bochkada qaynab turgan suvga solinadi va yuviladi. Shoyi bo‘yalgunga qadar yana bir jarayon mavjud, bu ham bo‘lsa singdirishdir (mordanting). Mordant (singdirish) so‘zi lotincha «tishlash» so‘zidan olingan bo‘lib, bu jarayon ranglarga shoyi ichiga kirib yaxshi joylashishga yordam beradi. Ushbu jarayonda mineral tuz achchiqtoshdan foydalaniladi. Shoyi o‘ramlari issiq achchiqtoshli suvga solinadi va bir kecha shu ishqor suvda qoldiriladi. To‘qish uchun dastlab jun, ipak va paxta tolalaridan ip yigiriladi. Iplarni asosan qo‘lda, urchuq vositasida, sanoatda esa maxsus ip yigirish stanogida yigiriladi. Yigirish – jun, ipak, paxta va kimyoviy tolalardan har xil yo‘g‘onlikka hamda turli fizikaviy xossalarga ega bo‘lgan iplar tayyorlash jarayoni hisoblanadi. Qo‘lda yigirish so‘nggi neolit davridan ma‘lum. Paxta tolasidan ip yigirish dastlab Hindistonda boshlab bergan. Markaziy Osiyoda paxtadan ip yigirib gazlama to‘qish milod boshidayoq rasm bo‘lgan. Qo‘lda yigirishning eng oddiy usuli barmoqlar yordamida tolalardan pilik tayyorlab, uni osilgan holatda ushlab, kaftlar orasida asta-sekin ingichkalashtirishdan iborat bo‘lgan. Keyinchalik dugli urchuq paydo bo‘ldi va ip tayyorlash ancha osonlashdi. O‘zbekistonda qadimgi urchuq ancha takomillashtirilib, g‘ildirakli charx yasaldi. Bunday charxning g‘ildiragi qo‘lda aylantirilardi, shunda uning urchug‘i chilvir orqali uyoqdan-buyoqqa burilardi. Bora-bora charx ham takomillashtirildi. Urchuq yoki charxda ip yigirish uchun tolalar oldin yog‘och taroqlarda tarab tekislab olinadi. Yigirish uchun tayyorlab olingan tolalardan piliklar tayyorlanib, ulardan yo‘g‘onligi deyarli bir xil iplar eshiladi. Qo‘lda yigirish usuli ayrim hududlarda hozir ham qo‘llanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 S. N. Tursunov, T. R. Pardayev, G. O'. Ahmedova O'zbekiston janubiy hududlarda madaniy va amaliy sa'nat yodgorliklari tarixi .Termiz , 2017 yil
- 2 S. T. Tusunov va boshqalar . surxon vohasi moddiy madaniyat tarixi . Toshkent 2013
- 3 S. T. Davlatova O'zbekistonning janubiy hududlari an'anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida Toshkent 2018
- 4 S. Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent-1991 yil.
- 5 S. Bulatov. O'zbekiston san'ati tarixi. Toshkent 1991 yil.
- 6 SH. L . Mamasoliyeva . Xalq hunarmandchiligi . o'quv qo'llanma . Samarqand – 2021 yil
- 7 Mallayev D Gilamchilik bilan bog'liq urf-odat va rasm-rusmlar. (Surxondaryo viloyati misolida) ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023